

ISLOMIY BANK XIZMATLARINI O'ZBEKISTONDA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI: MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR

Olimjonov Lochinbek Akramovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi.

Akramovich1996@mail.ru

+998990831249

Annotatsiya

Ushbu maqola islom moliyasining global moliya bozoridagi o'rni, O'zbekistondagi rivojlanish istiqbollari va tijorat banklarida kapital jalg qilish uchun muqobil vosita sifatida qo'llanilishi imkoniyatlarini tahlil qiladi. O'zbekistonda islom bankchiligini rivojlantirish bo'yicha davlat tashabbuslari va kafolat shartnomalari bilan bog'liq shariatga muvofiqlik muammolari o'rganildi. Empirik va qiyosiy tadqiqot usullari asosida O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish uchun qonunchilikni takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari islom moliyasining iqtisodiyotda moliyaviy inklyuzivlikni oshirish va investitsiyalarini jalg qilishdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: islom moliyasi, murabaha, mushoraka, kafolat shartnomalari, O'zbekiston, qonunchilik.

Kirish

Islom moliyasi global moliya bozorida jadal rivojlanib, yillik o'sish sur'ati o'rtacha 14% ni tashkil etmoqda va 2027-yilga kelib 7 trillion AQSh dollariga yetishi proqnoz qilinmoqda (ICD-PS, 2023). Jahon aholisining 24% ni tashkil etuvchi musulmonlar orasida ushbu xizmatlarga talab yuqori bo'lib, bu soha iqtisodiyotda muhim o'rin egallamoqda (Mordor Intelligence, 2023). O'zbekistonda aholining katta qismi musulmon bo'lishi va davlat tomonidan qabul qilingan qarorlar (PQ-4147, 2019; Vazirlar Mahkamasining 428-sonli qarori, 2019) islom moliyasini rivojlantirish uchun qulay zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, qonunchilikdagi bo'shliqlar, malakali kadrlar yetishmasligi va kafolat shartnomalari bilan bog'liq shariatga muvofiqlik muammolari sohaning rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda. Ushbu maqola O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish va amaliy takliflar ishlab chiqishni maqsad qilib qo'ydi.

Mavzuga oid adabiyotkar tahlili

Islom moliyasi bo'yicha tadqiqotlar global miqyosda keng o'rganilgan bo'lib, so'nggi o'n yilliklarda ushbu soha moliyaviy tizimlarning muhim qismiga aylandi. M. Taqi Usmoniy (2014) o'zining "An Introduction to Islamic Finance" asarida islom

moliyasining nazariy asoslarini chuqur tahlil qilib, riba (foiz) taqiqlanishi, shariat tamoyillari asosida moliyaviy muomalalarni yuritish va xavfni adolatli taqsimlash kabi tamoyillarni keng yoritgan. U islom moliyasining an'anaviy moliyaviy tizimlardan farqli o'laroq, real iqtisodiyotga asoslanganligini va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, Taqi Usmoniy zamonaviy bank tizimlarida islom moliyasi tamoyillarini qo'llashda shariatga muvofiqlik masalalarini ta'minlash uchun maxsus nazorat organlari (Shariat kengashlari) tashkil etish zarurligini urg'ulaydi.

Shuningdek, M. Ayyub (2007) o'zining "Understanding Islamic Finance" kitobida islom moliyasining amaliy jihatlarini o'rganib, murobaha (sotib olish va qayta sotish), mushoraka (sheriklik asosida moliyalashtirish), ijara (lizing) va mudoraba (investitsiya depozitlari) kabi moliyaviy vositalarning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilgan. Ayyubning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, islom moliyasi nafaqat musulmonlar uchun, balki foizsiz moliyaviy xizmatlarga qiziqish bildiruvchi boshqa guruhlar uchun ham jozibador bo'lib, global moliyaviy tizimda raqobatbardosh muqobil sifatida qaralmoqda. U, shuningdek, islom moliyasi muassasalari faoliyatida shaffoflik va axloqiy tamoyillarga rioya qilishning muhimligini ta'kidlaydi.

Abd As-Sattor Abu G'udda va E.A. Baydavlet (2019) islom moliyasining tarixiy rivojlanishini o'rganib, 1963-yilda Malayziyada tashkil etilgan Lembaga Tabun Hajji va Misrdagi Mit-G'amr banki kabi dastlabki muassasalarning ahamiyatini ko'rsatgan. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, islom moliyasi 1970-yillardan boshlab global miqyosda jadal rivojlanib, 2023-yilga kelib 1526 ta muassasaga, shu jumladan 526 ta islom bankiga ega bo'ldi (QAR, 2023). Baydavlet, shuningdek, O'zbekiston kabi postsoviet davlatlarida islom moliyasini joriy etishda qonunchilik bazasini mustahkamlash va jamoatchilikni xabardor qilish zarurligini ta'kidlaydi.

AAOIFI (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions) standartlari (2017) islom moliyaviy muassasalari uchun shariatga muvofiqlikni ta'minlashda muhim yo'riqnomalarini xizmat qiladi. AAOIFI standartlari murobaha, mushoraka va kafolat shartnomalari kabi moliyaviy operatsiyalarni shariat tamoyillariga muvofiq yuritish bo'yicha aniq qoidalarni belgilaydi. Xususan, kafolat shartnomalari bo'yicha AAOIFI ribo (foiz) xavfini bartaraf etish uchun haq olishni taqiqlaydi, lekin zamonaviy savdo ehtiyojlarini hisobga olib, vakala bil-istismar kabi muqobil shartnomalarni taklif qiladi. Ushbu standartlar O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan muhim manba sifatida e'tiborga olinadi.

O'zbekistonda islom moliyasi bo'yicha mahalliy tadqiqotlar ham e'tiborga molik bo'lib, so'nggi yillarda bu sohada sezilarli faollik kuzatilmoqda. A.S. Tursunov (2023) islom mikromoliyasining qashshoqlikni kamaytirishdagi ahamiyatini o'rganib, ushbu tizimning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishdagi rolini ta'kidlagan.

Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda mikromoliya tashkilotlari orqali foizsiz moliyaviy xizmatlar ko'rsatish kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga, shuningdek, aholining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Tursunov, shuningdek, mikromoliya tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirish va malakali kadrlar tayyorlash zarurligini ta'kidlaydi.

R. Abdullayev (2022) o'zining "Islom iqtisodiyotida savdo va tadbirkorlik" asarida islom moliyasi tamoyillari asosida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqqan. U islom moliyasining O'zbekiston iqtisodiyotida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilishdagi ahamiyatini ta'kidlab, mushoraka va mudoraba kabi moliyaviy vositalarni keng joriy etishni taklif qiladi. Abdullayevning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda islom moliyasi xizmatlariga talab yuqori bo'lishiga qaramay, aholining bu xizmatlar haqidagi xabardorligi pastligi va qonunchilikdagi bo'shliqlar sohaning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

B. Jo'rayev (2014) O'zbekistonda islom bank tizimining joriy etilishi bo'yicha dastlabki tadqiqotlar olib borgan. Uning ishi postsoviet davlatlarida islom moliyasini joriy etishdagi qiyinchiliklarni, xususan, qonunchilik bazasining yetarli emasligi va malakali mutaxassislar yetishmasligini o'rganadi. Jo'rayev Qozog'iston va Malayziya tajribasini o'rganib, O'zbekistonda islom bankchiliginu rivojlantirish uchun xalqaro tajribadan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi.

S. Abrorov (2020) sukuk (islomiy qimmatli qog'ozlar) joriy etish istiqbollarini o'rganib, kapital bozorini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini ko'rsatgan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, sukuk O'zbekistonda infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va xalqaro investitsiyalarni jalb qilishda muhim vosita bo'la oladi. Abrorov sukuk bozorini rivojlantirish uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish va investorlar uchun soliq imtiyozlarini joriy etishni taklif qiladi.

I. Abdurahmonov (2021) islom sug'urtasi (takaful) joriy etishdagi muammolarni tahlil qilgan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda takaful tizimini joriy etish aholining moliyaviy xavfsizligini oshirishga xizmat qilishi mumkin, lekin bu sohada jamoatchilik xabardorligining pastligi va qonunchilikdagi noaniqliklar katta to'siq bo'lib turibdi. Abdurahmonov takaful tizimini joriy etish uchun xalqaro tajribadan, xususan, Malayziya va Birlashgan Arab Amirliklari tajribasidan foydalanishni tavsiya qiladi.

O'. Haydarov (2022) tijorat banklarida islom moliyasidan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha amaliy yondashuvlarni taklif qilgan. U O'zbekistonda "Islom darchalari" tashabbusi doirasida tijorat banklarida islom moliyasi xizmatlarini kengaytirish imkoniyatlarini o'rganib, bu jarayonda FinTech texnologiyalaridan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. Haydarovning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki,

raqamli texnologiyalar islom moliyasi xizmatlarining samaradorligini oshirishi va aholining ushbu xizmatlarga kirish imkoniyatini kengaytirishi mumkin.

Yuqoridaq tadqiqotlar islom moliyasining global va mahalliy miqyosda ahamiyatini ko‘rsatadi, lekin O‘zbekistonda sohaning rivojlanishi uchun bir qator muammolar mavjudligini ta’kidlaydi. Xususan, qonunchilikdagi bo‘shliqlar, kadrlar yetishmasligi, shariatga muvofiqlik masalalari (ayniqsa, kafolat shartnomalari bo‘yicha) va jamoatchilik xabardorligining pastligi sohaning rivojlanishiga to‘sinqlik qilmoqda. Shu bilan birga, global tajribadan foydalanish, qonunchilikni takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ushbu muammolarni bartaraf etish mumkinligi tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan. Ushbu adabiyotlar sharxi O‘zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot Metodologiyasi

Tadqiqotda empirik va qiyosiy usullar qo‘llanildi. Empirik tadqiqot sifatida islom moliyasi xizmatlariga qiziqish bildirgan tadbirkorlar va potensial mijozlar orasida sotsiologik so‘rovlар o‘tkazildi. So‘rovlар islom moliyasiga bo‘lgan talab, xizmatlardan foydalanishdagi xatarlar va foya baholarini aniqlashga qaratildi. Shuningdek, moliyaviy muassasalar va biznesmenlar bilan musohabalar o‘tkazilib, rivojlanishdagi to‘sıqlar va imkoniyatlар o‘rganildi. Qiyosiy tahlil doirasida Qozog‘iston va Ozarbayjon kabi islom moliyasini muvaffaqiyatli rivojlantirgan davlatlarning huquqiy ramkalari o‘rganildi. Ma'lumotlar O‘zbekiston banklari, Islom Taraqqiyot Banki va AAOIFI standartlari kabi manbalardan olingan. Statistik tahlil va kontent tahlili usullari qo‘llanilib, natijalar grafik va jadvallar orqali vizual tarzda taqdim etildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O‘zbekistondagi islom bankchiligining holati: O‘zbekistonda “Islom darchalari” joriy etish tashabbusi boshlangan bo‘lib, Xalqaro Islom savdo moliya korporatsiyasi bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Hozirda murobaha, mushoraka, ijara (lizing) va mudoraba depozitlari kabi xizmatlar taklif etilmoqda. Biroq, kafolat shartnomalari bilan bog‘liq muammolar sezilarli to‘sıq bo‘lib turibdi. Islom moliyasida kafolat xizmati uchun haq olish riba sifatida taqiqlangan bo‘lsa-da, zamonaviy islom banklari bu xizmatlarni tijoriy asosda taqdim etmoqda, bu esa shariatga muvofiqlik masalasini dolzarb qilmoqda (AAOIFI, 2017).

O‘zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish bo‘yicha davlat tashabbuslari doirasida “Islom darchalari” joriy etish tashabbusi boshlangan bo‘lib, Xalqaro Islom Savdo Moliya Korporatsiyasi bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Hozirda murobaha, mushoraka, ijara (lizing) va mudoraba depozitlari kabi xizmatlar taklif etilmoqda. Shu bilan birga, sohaning rivojlanishi uchun qonunchilik bazasini mustahkamlash bo‘yicha muhim qadamlar qo‘yilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni 2021-yil 28-dekabrda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, 2022-yil 17-martda Senat tomonidan ma’qullangan (O‘RQ-765-son, 20.04.2022). Ushbu qonun mikromoliya tashkilotlari, lombardlar va ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari kabi nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solishga qaratilgan bo‘lib, ularning tashkil etilishi, faoliyat yuritish tartibi va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha qat’iy qoidalarni o‘rnatadi. Qonun mikromoliyalashtirish sohasida moliyaviy inklyuzivlikni oshirishni maqsad qilib, foizsiz moliyaviy xizmatlar (mushoraka, mudoraba) ko‘rsatish imkoniyatini nazarda tutadi, bu esa islam moliyasi tamoyillariga mos keladi. Biroq, qonunda islam moliyasi uchun maxsus qoidalalar alohida keltirilmaganligi sababli, bu yo‘nalishda qo‘srimcha normativ hujjatlar ishlab chiqish zarurati mavjud.

Ushbu qonunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi 2022-yil 6-dekabrda “Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish to‘g‘risidagi nizom”ni qabul qildi (ro‘yxat raqami 3412, 11.01.2023). Nizom mikromoliya tashkilotlari va lombardlar faoliyatini tartibga solish bo‘yicha amaliy qoidalarni belgilaydi. Unda kapital yetarliligi, likvidlik koeffitsientlari va xavfli aktivlar darajasini boshqarish bo‘yicha prudensial normativlar, shuningdek, aktivlar sifatini tasniflash va zaxiralarni shakllantirish qoidalari keltirilgan. Masalan, mikromoliya tashkilotlari o‘z kapitalining kamida 12% ni zaxira sifatida saqlashi shart. Nizom, shuningdek, lombardlar tomonidan mikroqarzlar berish va garov mol-mulkini saqlash tartibini aniq belgilab, qarz summasining 150% dan oshmagan qiymatdagi garovni qabul qilish kabi qoidalarni o‘rnatadi. Markaziy bankka har chorakda taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlar orqali tashkilotlarning faoliyati shaffofligi va barqarorligi nazorat qilinadi.

Kafolat shartnomalari muammolari: Kafolat xizmati uchun haq olish masalasi islam fiqhida adolatsizlik sifatida qaraladi, chunki bu riboga olib keladi. Masalan, bank mijozdan 500 ming so‘m qarz uchun 50 ming so‘m haq talab qilsa, bu ribo hisoblanadi (Ibn Qudomah, 2017). Zamonaviy ulamolar bu masalada xalqaro savdo ehtiyojlarini hisobga olib, haq olishga qisman ruxsat berishni muhokama qilmoqda, lekin qat’iy qaror hali qabul qilinmagan.

Muhokama (Discussion)

Tadqiqot natijalari islam moliyasining O‘zbekistonda rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatdi. “Islam darchalari” orqali aholining bo‘sh mablag‘larini iqtisodiyotga jalb qilish va xalqaro investitsiyalarni oshirish mumkin. Biroq, qonunchilikdagi bo‘shliqlar, malakali kadrlar yetishmasligi va kafolat shartnomalari bilan bog‘liq muammolar rivojlanishga to‘sinqlik qilmoqda.

Kafolat shartnomalari masalasida vakala bil-istismar shartnomasi muqobil sifatida taklif etilmoqda. Bu shartnoma orqali bank mijoz sarmoyasini halol tijoratlarga

investitsiya qilib, vakolat xizmati uchun haq olishi mumkin, bu esa shariat tamoyillariga mos keladi (AAOIFI, 2017).

O‘zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- 1. Qonunchilikni takomillashtirish:** Islom moliyasi uchun maxsus qonunlar ishlab chiqish, soliq imtiyozlarini joriy etish va Markazlashgan shariat kengashini tashkil etish.
- 2. Malakali kadrlar tayyorlash:** Universitetlarda islom moliyasi bo‘yicha fakultetlar ochish, treninglar tashkil etish.
- 3. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish:** FinTech platformalari va blockchain texnologiyalarini qo‘llash orqali xizmatlar sifatini oshirish.
- 4. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish:** Islom Taraqqiyot Banki bilan hamkorlikni mustahkamlash va O‘zbekiston Islom Moliya Markazini tashkil etish.
- 5. Jamoatchilikni xabardor qilish:** Ommaviy axborot kampaniyalari o‘tkazish, AAOIFI standartlarini tarjima qilish va nashr etish.

Markazlashgan shariat kengashining mavjud bo‘lishligi ko‘plab hukumatlarda joriy qilingan bo‘lib, AAOIFI shariat standartlarida ham ushbu boshqaruvin modeli yuzasidan alohida bo‘lim standart sifatida ishlab chiqilgan.

IFAAS tomonidan O‘zbekiston Respublikasi islom moliyaviy xizmatlari uchun shariat kengashi boshqaruvining asosiy tarkibiy qismlari quyidagicha taklif etilmoqda:

Rasm-2 Taklif etilayotgan shariat boshqaruvin modeli



Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, islom moliyasi O‘zbekiston iqtisodiyotida moliyaviy inklyuzivlikni oshirish, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim vosita bo‘la oladi. Shu bilan birga, global miqyosda islom moliyaviy tashkilotlarining aktivlari hajmining 2012-yildan 2024-yilgacha 2,050 milliard AQSh dollaridan 3,472 milliard AQSh dollariga yetib, 69% o‘sish ko‘rsatganligi (o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 5.8-6.25%) O‘zbekiston uchun ushbu sohada faol ishtirop etish imkoniyatlarini ochib beradi. Biroq, qonunchilikdagi bo‘shliqlar, malakali kadrlar yetishmasligi, kafolat shartnomalari bilan bog‘liq shariatga muvofiqlik muammolari va jamoatchilik xabardorligining pastligi sohaning to‘liq rivojlanishiga to‘sinqlik qilmoqda.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan takliflar, xususan, islom moliyasi uchun maxsus qonunchilik bazasini yaratish, Markazlashgan Shariat Kengashini tashkil etish, malakali mutaxassislar tayyorlash, FinTech va blockchain texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, Islom Taraqqiyot Banki kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali ushbu muammolarni bartaraf etish mumkin. Shu bilan birga, “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun (2021) va Markaziy bankning 2022-yil nizomi kabi qonunchilik tashabbuslari sohaning rivojlanishi uchun muhim zamin bo‘lib xizmat qiladi, ammo ularni yanada takomillashtirish zarur.

Kelajakda islom moliyasining O‘zbekistonda rivojlanishi bo‘yicha tadqiqotlarni quyidagi yo‘nalishlarda davom ettirish tavsiya etiladi: birinchidan, kafolat shartnomalari bo‘yicha shariatga muvofiqlik masalalarini chuqurroq o‘rganish va zamonaviy savdo ehtiyojlariga mos muqobil mexanizmlarni ishlab chiqish; ikkinchidan, raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini baholash; uchinchidan, sukuk (islomiy qimmatli qog‘ozlar) va takaful (islom sug‘urtasi) kabi mahsulotlarni joriy etishning huquqiy va iqtisodiy asoslarini o‘rganish. Ushbu yo‘nalishlarda olib boriladigan tadqiqotlar O‘zbekistonda islom moliyasi sohasini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi va global bozor tendensiyalaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Shu tariqa, islom moliyasi nafaqat mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga, balki aholining moliyaviy xizmatlardan teng foydalanishini ta’minlashga ham hissa qo‘sadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4147-sonli qarori, 2019-yil 1-fevral.
2. AAOIFI. Shariah Standards. Malaysia: King Fahd Publishing, 2017.
3. Baydavlet Y.A. Islom moliya asoslari. Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2019.
4. Mordor Intelligence. Islamic Finance Market Report, 2023.
5. ICD-PS. Islamic Finance Development Report, 2023.
6. Taqi Usmani, M. An Introduction to Islamic Finance. Karachi: Pakistan, 2014.
7. Ayyub, M. Understanding Islamic Finance. England: John Wiley & Sons Ltd, 2007.
8. Tursunov, A.S. Islom mikromoliyasining iqtisodiy asoslari va qashshoqlikni kamaytirishda ahamiyati, 2023.
9. Abdullayev, R. Islom iqtisodiyotida savdo va tadbirkorlik. Toshkent: EFFECT-D, 2022.